

**TEZKOR XIZMATLAR TOMONIDAN AMALGA OSHIRILADIGA  
HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATI**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 305-guruh kursanti  
Sadinov Aziz G'olib o'g'li*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada ishida huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslari tushunchasi, tas'nifi (guruhlanishi), uni takomillashtirish faoliyati hamda bu faoliyatda inobatga olinishi zarur bo'lgan bir qancha holatlar, bu faoliyatni amalga oshirishni talab qiluvchi obektiv hamda subektiv omillar haqida so'z yuritiladi. Shu bilan bir qarorda huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatidagi o'rni, bu faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar, ularning faoliyatida huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslarining doirasida amalga oshirilishi huquq hamda majburiyatlarni bajarishda ularning taqsimlanishi taqsimlanish jarayonida yuzaga keluvchi bo'shliqlar ularni bartaraf etish borasidagi mulohazalar, ularning faoliyat samaradorligini oshirish hamda yanada tasirchan mexanizm aylantirish ular faoliyatini muvofiqlashtirishni yanada kuchaytirishga doir masalalar yoritib o'tiladi. Bundan tashqari bitiruv malakaviy ishida ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish orqali ularni milliy mentalitetdan kelib chiqqan holda milliy qonunchilikka tatbiq etish bu jarayonda kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolar hamda ularning yechimlari bo'yicha fikr yuritiladi.

**ANNOTATION**

In this article, the concept, classification (grouping) of the legal bases of crime prevention, its improvement activities, as well as several cases that need to be taken into account in this activity, as well as objective and subjective factors that require the implementation of this activity, are discussed. place in the activity of crime prevention, entities that carry out this activity, implementation of crime prevention within the framework of the legal basis of their activity, their distribution in the fulfillment of rights and obligations, considerations on how to eliminate the gaps that arise in the process of distribution, their effectiveness, and making it a more effective mechanism, it is necessary to further strengthen the coordination of their activities issues are covered. In addition, by studying the experience of advanced foreign countries in the graduation thesis, the problems that may arise in the process of applying them to the national legislation based on the national mentality and their solutions are considered.

Konstitutsiyamizning 146-modda esa bu faoliyat alohida belgilab berildi va quyidagicha normalar belgilandi O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil

ravishda bajaruvchi xususiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo‘linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi taqiqlanadi. Qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko‘rsatishlari mumkin. Bu yordam ko‘rsatish nafaqat davlat tashkilotlariga mustaqil faoliyat ko‘rsatishga zid bo‘lmasligi zarur. Shu sababdan ham bu faoliyat alohida tatqiq qilishni ularnihar tomonlama o‘rganishni talab etiladi. Aynan bu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi ham shundan kelib chiqadi Keyinchalik bu boradagi faoliyat Huquqbuzarliklar profelaktikasi to‘g‘risidagi qonunnda alohida belgilab berildi. 21-modda Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi ishtiroki Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari:

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

tegishli hududda jamoat tartibini ta‘minlashda, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishi hisobga olinishini tashkil etishda, voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda ularning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ishlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko‘maklashadi;

ro‘yxatdan o‘tkazilmagan diniy tashkilotlar faoliyatiga chek qo‘yish, fuqarolarning diniy e‘tiqod erkinligiga bo‘lgan huquqlariga rioya etilishini ta‘minlash, diniy qarashlarni majburlab singdirishga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlarini ko‘radi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi bilan bog‘liq boshqa masalalarni ko‘rib chiqadi;

ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilari bilan birgalikda “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi a‘zolari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

yarashtirish komissiyalari va boshqa komissiyalarni tuzadi;

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin<sup>1</sup>.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarga ko‘maklashish hamda zarur yordamni ko‘rsatish yo‘li bilan huquqbuzarliklar profilaktikasida ishtirok etishi mumkin. So‘nggi yillardagi islohotlarda ham bu alohida yo‘nalishlardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [Farmoniga](#) asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilab berilgan.

1.inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

2.mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

3.milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash;

4.adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

5.ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

6.milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

7.mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq. Bu yo‘nalishlardan 1,2,7 alohida o‘rin tutadi.Bu yo‘nalishlarni amalga oshirish uchun bir qancha maqsadlar blgilab berildi **14-maqsad: Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta‘minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash**<sup>2</sup>.Mahkumlar va jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslarning mehnat, ijtimoiy ta‘minot va xalqaro e‘tirof etilgan boshqa

1. Huquqbuzarliklar profelaktikasi to‘g‘risidagi qonunnda alohida 2014-yil 14-may 21-modda

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni 1-7 yo‘nalish

huquqlarini ta‘minlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga reintegratsiyasiga ko‘maklashishning samarali mexanizmlarini joriy etish, ushbu yo‘nalishda davlat va jamiyat institutlarining birgalikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Fuqarolarga huquqiy ta‘sir ko‘rsatish, shu jumladan harakatlanish erkinligini cheklash bilan bog‘liq choralarni qo‘llashda qonuniylikni so‘zsiz ta‘minlash hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Fuqarolarni yashash joyi bo‘yicha hisobga olish tizimini yanada soddalashtirish va aholiga qo‘shimcha qulayliklar yaratish, ushbu yo‘nalishda boshlangan islohotlarni yakuniga yetkazish.

Jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish.

Qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha preventiv mexanizmlarni takomillashtirish va ushbu yo‘nalishda maxsus qonun qabul qilish.

Yuvenal adliya tizimini shakllantirish hamda bola huquqlari qonunchiligini kodifikatsiyalash. **16-maqsad: Jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish.**



Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish.

Jamoat tartibini saqlash bo'yicha patrullik xizmati faoliyatini tubdan takomillashtirish, shu jumladan zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etgan holda fuqaroni ichki ishlar bo'limiga tekshirish uchun olib borish amaliyotidan voz kechish.

Yo'l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo'llarda avariya va o'lim holatlarini qisqartirish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to'liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta'minlash.

**17-maqсад: Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlarini, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish.**

Ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo'naltirish.

Qonuniylikni qat'iy ta'minlovchi, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda "Qonun — ustuvor, jazo — muqarrar" tamoyilini bosh mezonga aylantirish.

Tezkor-qidiruv va tergov faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, fuqarolarning qadr-qimmatini va erkinligini samarali himoya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jinoyatlar haqida xabarlarni hisobga olish tizimini tubdan isloh qilish, jinoyatlarni yashirish holatlarining oldini olishda zamonaviy usullardan foydalanish.

Bunday maqsadlardan ro'yobga chiqarish jarayonida zamonaviy ijtimoiy borliqqa mos tarzda rivojlantirib borishdadir. Shularni inobatga olgan holda ilk bora 2014-yil 14-may sanasida 51 moddadan iborat bo'lgan 371 sonli Huquqbuzarliklar profelaktikasi to'g'risidagi qonun qabul qilinishi bilanbu qonun ushbu faoliyatning asosiga aylandi. Qonun bilan huquqbuzarliklar profelaktikasini amalga oshiruvchi subyektlar ularning vakolat doiralari, chora tadbirlar belgilandi. Bu qonun ayni damda Konstitutsiyadan keying asosga aylandi va shu asosida qonunosti normalariqabul qilindi. Ular esa zamon rivojiga mos tarzda takomillashib oriladi. **Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida 2021-yil 26-mart, PF-6196-son qabul qilindi** ubilan bir qancha departamentlar shu jumladan Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profelaktikasi bosh boshqarmasi, Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o'z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etildi. IIO tizimida departamentda<sup>1</sup> boshlab tayanch punkti va mahalla huquq tartiboti maskaniga qadar davom etuvchi tuzilmasi shakllantirildi. Ularning alohida

huquqiy asoslari qabul qilindi. Jumladan Ichki ishlar organini jamoat xafsizligini taminlash jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimch tashkiliy chora tadbirlar to'g'risida gi PQ – 5050 ning 1-ilovasi bilan mahalla huquq tartiboti maskan nizomi qabul qalinib Mahalla huquq-tartibot maskani (keyingi o'rinlarda — Maskan)<sup>2</sup> mahalla va qishloqlarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini bevosita amalga oshiradigan, shuningdek, fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini \_\_\_\_\_

1. Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida 2021-yil 26-mart, PF-6196-son

tashkil etadigan ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidagi tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi deb belgilandi. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib tizimini tzkomillashtirish to'g'risidagi 5618 qaror bilan inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda. Xususan:

birinchidan, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlari tizimli va uzviy tashkil etilmayapti. Jamiyatda, oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida va tashkilotlarda huquqiy axborotlarni yetkazishning ta'sirchan mexanizmi mavjud emas. Shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash g'oyalari aholi, ayniqsa, davlat xizmatchilari ongiga yetarli darajada singdirilmayapti;

ikkinchidan, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim jarayonlari huquqiy tarbiya bilan uyg'un olib borilmayapti, aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda o'zbek xalqining tarixi, dini, urf-odatlarini, milliy qadriyatlariga tayanilmayapti;

uchinchidan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir tadbirlarni tashkil etishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlik tizimi yaratilmagan, ijtimoiy sheriklik prinsipi asosida ishlar tashkil etilmagan;

to'rtinchidan, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirishning aniq maqsadli chora-tadbirlari belgilanmagan;

beshinchidan, jamiyatda manzilli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda va amalga oshirishda davlat organlari va boshqa sohaviy xizmatlarning faol ishtiroki ta'minlanmayapti, bu borada yuqori natijadorlik va samaradorlik ko'zga tashlanmayapti;



oltinchidan, huquqiy tadbirlar hamon an'anaviy usullarda, oddiy uchrashuvlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilmoqda, bu borada targ'ibotning innovatsion usullaridan, shu jumladan, veb-texnologiyalardan foydalanilmayapti, huquqiy yo'nalishdagi veb-saytlar yetarli emas;

yettinchidan, huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan loyihalarni rag'batlantirishning huquqiy mexanizmlari mavjud emas, bu borada tadbirlar nomigagina tashkil etilmoqda, huquqiy bilimlarni yuksaltirish bo'yicha huquqiy adabiyotlarni chop etish va tarqatish, ilmiy izlanishlarni olib borish ishlari samarasiz amalga oshirilayotgani ababli yanada tasirchan mexanzm ishlab chiqishni talab etishini kurish mumkin. Huquqbuzarliklar profelaktikasini faqat davlat organlari ( bevosita amalga oshiruvchi subyektlarnig vazifasi deb qarash noto'g'i ekanligidan ha kelib chiqadi . chunki jamiyatda bunday harakatlarning miqyosi kengligi ular bilan kurashda yanada keng ko'lamdagi harakatlarni talab etadi bu esa O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 14-mart sanasidagi Huquqbuzarliklar profelaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlri to'g'risidagi PQ-2833 Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi kutilayotgan natijalarni bermayotganligi , vakolatli organlarning yetarli darajada tashabbus ko'rsatmayotganligi, lozim darajadagi idoralararo hamkorlikning mavjud emasligi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning o'zaro nomutanosibliigi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishni talab etadi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta'sirchan tizimini yaratish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqligi belgilanib, bu boradagi faoliya nodavlat notijorat tashkilotlar , fuqorolarning ham vazifasi etib belgilanib, bu boradagi vazifalarni bajarish uchun:

1. Davlat organlarining, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi ishlari qoniqarsiz deb e'tirof etidi.

2. Huquqbuzarliklarning samarali profilaktikasini amalga oshirish davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek xo'jalik boshqaruvi organlarining (keyingi o'rinlarda — davlat idoralari va tashkilotlari) ustuvor vazifasi etib belgilandi<sup>1</sup>.

Ushbu sohada quyidagilar davlat idoralari va tashkilotlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib esa quyidagilar hisoblandi :

-fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini, shu jumladan aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq

1.2017-yil 14-mart sanasidagi Huquqbuzarliklar profelaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlri to‘g‘risidagi PQ-2833

muloqotni yo‘lga qo‘yish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari faoliyatida faol ishtirok etish, fuqarolar murojaatlari va muammolariga bepisand munosabatda bo‘lish va byurokratik holatlarga yo‘l qo‘ymaslik orqali ta‘minlash;

-huquqni qo‘llash amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish choralari ishlab chiqish hamda amalga oshirish orqali huquqbuzarliklarning, ayniqsa voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida oldini olish hamda ularga chek qo‘yish, shuningdek ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish;

-idoralararo hamkorlikni yanada rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan videokuzatuv, elektron hisobga olish va o‘zaro axborot almashish, idoralararo ma‘lumotlar bazalari tizimlarini profilaktik ishlarga keng joriy etish;

-jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ijtimoiy va davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

-amalga oshirilayotgan profilaktika chora-tadbirlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini, qonuniylik ahvoli hamda jinoyatchilik darajasi haqidagi ma‘lumotlarni aholiga yetkazish masalalarida ommaviy axborot vositalari bilan faol hamkorlik qilish, Internet butunjahon axborot tarmog‘i imkoniyatlaridan keng foydalanish, sodir etilgan huquqbuzarliklar va ularni bartaraf etish jarayoni to‘g‘risida keng jamoatchilikni tezkor xabardor qilish;

-huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini, shu jumladan huquqbuzarliklar dinamikasi, ularni sodir etish takroriyligi, ijtimoiy fikr, profilaktik ishlar natijasidan fuqarolarning qoniqish hosil qilishi va aholi bilan hamkorlik darajasini inobatga oladigan baholashning aniq mezonlarini joriy etish. bu esa mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.